

Poezd Toshkentga yaqinlashgan sari Qunduzxonning yuragi qattiqroq ura boshladi. Bundan ikki yil avval shu stantsiyadan unga oq yo'l tilab qolgan ona endi yo'q. U o'tgan yili bahorda tug'ruqxonada o'lgan. Qizning nazarida, ona perronda hamon ro'mol silkil turgandek edi.

Poezd stantsiyaga kirib keldi. Perron to'la odam. Hamma vagon eshigiga qarab yuguradi. Ular orasida faqat ona, Qunduzxonning onasi yo'q, xolos.

Qiz chamadonchasini ko'tarib vagonidan tushdi, odamlar orasidan turtina-turtina chetga chiqib, dadasini qidira boshladi.

"Telegramma yetib kelmaganmikin" deb dilidan o'tkazdi Qunduzxon. Yo'q. Dadasi odamlar orasida ko'rinmadi. Onasi bo'lsa, albatta, chiqar edi. Gul tutib kutib olardi. Qizning atrofga javdirab turgan ko'zlari xomush yerga boqdi. Qiz ko'ngli o'ksidi.

Ne-ne orzu-umidlar bilan o'stirgan farzandining balog'at yoshini ko'rolmagan onalar, farzandlik qarzini o'tolmay armonda qolganlar qalbini tirnab kelgan dardu alamini ifoda qilib bo'larmidi.

Atrofni quvnoq kulgiga to'ldirgan mana shu odamlar orasidan Qunduzxon bundan ikki yil avval yo'qotgan onasining mehribon-munis siymosini qidiradi. Qani u, ko'zi yorib, bir parcha etda o'z istiqbolini ko'rolgan va unga baxt tilagan ona! Yoshlik yillari uning sochlarini mayda qilib o'rib qo'yadigan mehribon qo'llar qani? U endi abadiyan yo'qlikka ketdi.

Qunduzxon bo'shshib chamadonchasiga o'tirdi. Iyagini kaftiga tirab, bir nuqtaga tikilganicha xayolga toldi.

Ona o'ldi. Tug'ruqxona doyasi qo'lida yig'lab turgan chaqaloq hali ko'z ochmay ona sutidan, visolidan begona bo'ldi. U kunlari Qunduzxon Moskvada o'qishda edi. Bu qayg'uli xabarni qiziga qanday qilib bildirishni bilmagan ota uzoq vaqt sukut saqladi.

Oxiri yozishga majbur bo'ldi.

Qunduzxon o'zini har qancha tutishga urinmasin, og'ir yo'qotishning azobi uni qiynar, ezar edi. Yozgi imtihonlar boshlandi, bir fandan yiqildi. Qayta topshirish uchun yoz bo'yi tayyorlandi. Yana o'qish boshlanib, Toshkentga kelolmay qoldi. Uni faqat singlisi, hali na onasini va na opasini ko'rmagan chaqaloqning ahvoli qiynar edi. "Onasiz holi nima kechdi ekan?" Qunduzxon faqat shu haqda o'ylandi.

Qunduzxon bosh ko'tarib atrofqa qaradi, odamlar allaqachon tarqab ketgan, uni to'rt sutka yo'l bosib olib kelgan poezd bir zumda bo'shab qolgan. Gazeta kioskada oldida sochiga oq oralagan, o'rta yoshlardagi bir xotin unga qarab turardi.

- Siz Qunduzxon emasmisiz? Darrov tanidim, suratingizga o'xshar ekansiz. - Xotin tez-tez yurib kelib, u bilan quchoqlashib ko'rishdi. Hali o'zini o'nglab olmagan Qunduzxon bu xotinning bag'rida ko'pdan unutilgan o'z onasining isini tuydi.

Bir eslab ko'ring! Onalarda qandaydir bir is bo'ladi. Bolalik yillarimizda ona bag'rida erkalanib yotarkanmiz, dimog'imizga o'rnashib qolgan o'sha ona isini katta bo'lganimizda ham unutilmaymiz.

- Dadangiz zarur bir ish bilan idorada band bo'lib qoldilar. O'zim chiqdim.

Qunduzxon bir so'z demadi. Bu xotin kim, nima uchun u Qunduzxonni kutgani chiqdi. Bu to'g'rida o'ylab ham ko'rmadi. Ona isidan mast bo'lgan qiz itoat bilan uning ketidan shahar maydonchasiga chiqdi.

Havo ochiq, kuz oftobi tilla rang yaproqlar ustida chaqnar, tiniq osmonda kumushdek yaltirab kaphtarlar uchardi. Mashina asfalt yo'ldan tekis suzib, kuz shamoli to'kkan barglarni ikki tomonga uchirib borardi. Mashina oynasidan baland, hushqomat imoratlar lip-lip o'tib turibdi. Ko'chalar gavjum, tug'ilib o'sgan, go'daklik yillarining eng beozor kunlari o'tgan "Sharq" kinoteatri oldidan o'tarkan, Qunduzxonning ko'z oldida yana o'sha munis-mehribon onaning yoqimli siymosi gavalandi.

Mashina kurant ro'parasidagi uch qavatli bino oldida to'xtadi. Xotin chamadonni qo'lga olib yerga tushdi-da, Qunduzga yo'l berdi. Katta darvoza oldidagi sahnda o'rtoqlari bilan o'ynab yurgan ikki yoshlardagi qizcha yugurib kelib xotinga tashlandi.

- Taniyapsizmi? - Xotin Qunduzga o'girildi, - singlingiz Lolaxon.

Qunduzxon qizning ko'ziga qaradi-yu, unda o'z onasining ko'zini ko'rdi. Yuragi urib ketdi. Qizchani ko'tarib bag'riga bosdi. Lola yotsirab o'zini chetga tortdi va xotinga qarab talpindi.

- Voy, opanglar-ku, Moskvadagi opanglar-ku, - dedi xotin Lolani bag'riga bosib.

Lola ko'zlarini katta-katta ochib Qunduzga qaradi.

- Menga nima olib keldingiz?

- Sengami, ancha narsa olib keldim.

- Uxlaydigan qo'g'irchoq ham olib keldingizmi? Qunduz javob o'rniga uning yuzidan o'pdi.

Uyga kirishdi. Xotin ichkari xonaga kirib yo'l-yo'l xalat kiyib chiqdi-da, stol ustiga yoyib qo'yilgan dasturxonni ochib yubordi.

- Qunduzxon, avval bir dushga tushib olasizmi-a?

- Mayli, - Qunduzxon go'yo sehrlangandek javob berdi.

Vaqt juda tez o'tardi. U dushdan chiqib artinayottanda ham "bu xotin kim, nega muncha mehribonchilik qiladi?" degan savol miyasidan nari ketmasdi. Xotin kirdi, qo'lidagi xitoy shohisidan tikilgan xalatni uning yelkasiga tashlar ekan, qo'shib qo'ydi:

- Razmeringizni bilmadim. Kengroq bo'lsa tuzatib berarman.

Shu payt Lolaxon hali yengi o'rnatilmagan ko'ylakni etagidan sudrab kirdi.

- Opa-chi, opa, ayam menga ko'ylak tikib berdilar. Judayam ko'ylagim ko'p. Qizil ko'ylagimni ko'rsataymi?

Xotin yugurib kelib uning qo'lidan ko'ylakni oldi.

- Voy, qizim tushmagur-e, hali bitgani yo'q-ku. Qunduzxon turgan yerida qotib qoldi. Singlisining "ayam", bu xotinning "qizim" deyishi uning qulog'iga o'qdek qadaldi. Demak, demak, u...

Qunduz yuzini panjalari bilan berkitib, ichkari uyga yugurdi, o'zini karavotga tashlab, yig'lab yubordi. Uning ko'zi oldida yana ona gavalandi. U qiziga xomush termilar, nimadir demoqchi bo'lgandek lablarini juftlab turardi. Qunduz ko'z yoshlaridan ho'l bo'lib ketgan yostiqli surib qo'yib, o'ng yonboshiga ag'darilgan edi, devorda, zarhal ramkadan kulib qarab turgan onasining suratiga ko'zi tushdi.

Eshikdan mo'ralab turgan Lola hayronlikda ko'zini pirpiratib, orqasiga qaytdi.

- Aya-chi, aya, opam yig'layaptilar.

Xotin xomush o'tirib qoldi. Elektr choynagining jo'mragidan parillab bug' ko'tarilar, to'lqini adashgan radiopriyomnik muttasil xirillar edi.

- Siz ham yig'layapsizmi? - Lola xotinning yelkasiga osildi. Xotin qizchani tizzasiga o'tqazib, uning boshini siladi.

- Boshingiz og'riyaptimi?

- Xd, qizim, boshim og'riyapti.

Xotin mashaqqat bilan o'rnidan turdi-da, asta-sekin yurib Qunduzxon o'tirgan uyga kirdi. Qunduzxon hamon onasining suratiga termilib, xomush o'tirardi. Xotin ham suratga qaradi.

"This is not registered version of TotalDocConverter"

Qanday, o'z qaniningga o'zing boshib bo'layding, baxtini ko'rsayding. Men sening baxtingga sherik bo'lmoqchi emasdim... Sening yo'qligingni bildirmasam, bolalaring ayozda sovqotmasa, kiri yuvuqsiz, qozoni osiqsiz qolmasa, deyman. Ularni o'zing niyat qilgandek tarbiya qilsam, deyman. Bayramlarda, to'yu tamoshalarda o'ksinmasa, yetimligi bilinmasa, deyman..." Xotin ro'molining uchi bilan ko'z yoshlarini artib oldi-da, qo'lini Qunduzxonning yelkasiga qo'ydi.

- Hammasiga tushunaman. Og'ir, juda og'ir. Biroq menga ham... O'zganing farzandiga ona bo'lishdek og'ir ish yo'qligini bilaman. Xotin yuragini to'lqinlatib turgan fikrlarni aytish uchun so'z topolmadi. Xo'rsindi.

Darhaqiqat, ona o'z bolasini sho'xlik qilganda urishadi, vaqti kelganda jazo beradi. Ammo o'zganing bolasiga shundoq qilib bo'ladimi. Ularga onalik qobiliyatining eng nozik vositalari bilan yondashmoq kerak.

O'gay onalar haqida el og'ziga tushgan turli-tuman latifalar, chidab bo'lmas ta'nalar tushunchamizga yelim-dek yopishib qolgan. Bu munosabatlar hamon ular xizmatini kamsitib keladi.

Qunduzxon kechki ovqat vaqtida ham xomush o'tirdi. Yechinib o'rniga yotarkan, tomog'ini bo'g'ib kelayotgan alam va iztirobni qaytarmoqchi bo'lib harchand urinsa ham bo'lmadi. Begona xotinni ona deb atashga tili bormas, bunga uni mutlaqo huquqsiz deb bilardi.

Qo'shni xonada chiroq o'chdi. Devordagi soat o'n bir marta zang urdi. Xotin hamon uxlolmay, uy ichida kuymalanib yurardi. Lolaning ijrg'anib yig'lagan ovozi eshitildi. Yana chiroq yondi.

- Voy, qizim, isitmang bor-ku. - Bu xotinning ovozi edi.

Qunduz shoshib, yostikdan bosh ko'tarib, quloq soldi. Shkaf eshikchasi g'iyqillab ochildi. Oyoq tovushi. Lola hamon ingrardi. Qunduz qiya ochiq eshikdan qo'shni xonaga qaradi. Xotin Lolaning qo'ltig'iga qo'ygan termometrni olib chiroqqa solib qaradi-da, uni bir silkib stol ustiga qo'ydi. Lolaning karavotchasisiga engashib, uning ko'z milkklarini yirib ko'rdi va uni ko'tarib, uyning u boshidan bu boshiga yura boshladi.

Qunduz o'rniga kelib yotdi. O'zganing farzandida o'ziga nisbatan farzandlik hissini qo'zg'atolgan xotinga yuragining allaqaerida muhabbat uchquni yilt etib ketganini sezmay qoldi.

Ko'zini uyqu bosdi.

Dadasi ishdan kech qaytdi. U ish kiyimini yechib, bolalarini uyg'otib yubormaslik uchun oyoq uchida yurib Lolaning karavoti tepasiga kelib engashdi.

- Qunduzxon keldi.

- A?! - U xotinning ko'ziga qaradi.

Uning bu qarashida uch ma'no bor edi. Biri, ko'pdan sog'ingan qizini ko'rishga shoshilish, ikkinchisi, sevgan onasidan ajralgan qizning iztirobi holatini ko'rishga yuragi dov bermaslik, uchinchisi o'gay onaga bo'lgan munosabatda biron ko'ngilsizlik bo'lmaganmikin degan shubha edi.

- Uxlayapti, - dedi xotin u yotoq eshigini ochayotganida, - bezovta qilmay qo'ya qoling, charchab kelgan, uxlasin.

U ovoz chiqarmay bir yo'talib oldi-da, ichkari kirdi. Stol ustidagi ko'k abajurli chirokdan Qunduzxonning yuziga havoyi bir nur tushib turardi. "Onasining o'zi, ko'zi ham, yuz tuzilishlari ham xuddi onasi..." deya dilidan o'tkazdi ota.

Er-xotin allavaqtgacha uxlayolmadi. Er tez-tez papiros chekar, xotin esa Lolaning tepasidan nari ketmasdi.

Qunduzxon uyg'onganda, dadasi katta toshoyna oldida yuziga sovun ko'pigini surib, soqol olayotgan edi. U apil-tapil kiyinib dadasining oldiga chiqdi.

Ota oynadan qizining aksini ko'rish bilan qo'lidagi buyumlarini tashlab, uni bag'riga bosdi.

Qunduz, go'yo shu ikki yil ichida hech qanday voqea bo'lmagandek, o'zini quvnoq tutdi.

- Qizim, dadangdan xafa emasman?

- Nega xafa bo'lay, juda to'g'ri qilgansiz...

Ular stol atrofiga o'tirishdi. Dasturxonda xonaki pechenelar, atirgul nusxa tort va turli xil mevalar bor edi.

- Ayang sening kelishingga uch kundan beri tayyorlanadi.

Ayang so'zi Qunduzxonning qulog'iga g'alatiroq eshitildi. Lekin ota oldida o'zini tutdi. Sezdirmedi.

- Ishga ketadigan vaqtim bo'lib qoldi, ayang Lolani doktorga olib ketgan edi, sen bir oz dam ol, hozir kelib qolar.

Ota tez-tez kiyinib, uydan chiqdi. Qunduzxon yolg'iz qoldi. U bir oz xayol surib turgach, ichkari uyga kirib, garderozni ochdi. Kichik ilgakchalarda Lolaning tekis dazmollangan ko'ylaklari, kichik uyga kirdi, unda Lolaning o'yinchoqlari. Xonalarning hammasi ozoda, deraza pardalari oppoq, uy anjomlari yiltirardi. Hamma yoqda didli, mehribon xotinning qo'li sezilib turardi.

Qunduzxon yo'qotgan onasini yana topgandek bo'ldi, bu xotinda o'z onasini - uning mehru muhabbatini ko'rdi.

Narigi uydan Lolaning ovozi eshitildi. Qunduzxon yugurib chiqdi. Xotin qo'lidagi buyumlarni stolga qo'yayotgan edi.

- Dadangiz ketib qoldilarmi?

- Hozir ketdilar. Lola tuzukmi, ayajon?

Xotin turgan yerida dong qotib qoldi. Qunduz uni ayajon deb atadi, u yo yanglish eshitdimi?! U xursandligidan entikdi. Bu so'z uning yuragiga iliqqina borib tegdi. Ona ko'ngli tog'dek ko'tarildi. U baxtdan entika-entika Qunduzxonning boshini silar, erkalardi. Qunduz uning og'ushida ona isidan mast bo'lib ko'zlarini yumdi.